


**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI HUZURIDAGI
YURIDIK KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH
INSTITUTI**

“TASDIQLAYMAN”

Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash
va malakasini oshirish instituti
direktori birinchi o‘rinbosari

 R. Xursanov
2026-yil 12-fevral

“MEDIATORLARNI TAYYORLASH”

o‘quv kursi bo‘yicha

O‘QUV DASTURI

I. O'QUV KURSINING MAZMUNI

1.1. Kirish

O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 3-iyuldagi "Mediatsiya to'g'risida"gi qonuni qabul qilindi. Xususan, unda mediatsiyaning asosiy tushunchalari va prinsiplari, mediatsiyadagi taraflarning huquq va majburiyatlari, mediatorga qo'yiladigan talablar, uning huquq va majburiyatlari, mediatsiyadan foydalanish va o'tkazish shartlari ko'rsatilgan.

Ushbu qonunning amal qilishi fuqarolik huquqiy munosabatlardan, shu jumladan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish munosabati bilan kelib chiqadigan nizolarga, shuningdek yakka mehnat nizolariga va oilaviy huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarga mediatsiyani qo'llash bilan bog'liq munosabatlarga nisbatan, agar qonunda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, tatbiq etiladi.

Ta'kidlash joizki, ushbu qonunga binoan mediatsiya xizmatlari professional va professional bo'lmagan holda ko'rsatilishi mumkin. Professional mediatorlar to'g'risidagi ma'lumotlar professional mediatorlar reestriga kiritiladi. Mediatsiya suddan tashqari tartibda ham, sudda ham amalga oshirilishi mumkin.

Shu boisdan, nizolashuvchi tomonlar bilan professional ishlashga qodir bo'lgan malakali mediatorlarni tayyorlash alohida, dolzarb ahamiyat kasb etadi.

O'quv dasturi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 19-martdagi "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari" to'g'risidagi 171-son qarorida belgilangan talablar majmuiga mos keladi.

1.2. Kursning maqsadi

Mediatorlikka nomzodlarga mediatsiyaning umumiy asoslari, mediatsiya protseduralari, mediatsiya va ayrim turdagi nizolarda mediatsiya haqida tayanch bilimlar berish va bu bo'yicha amaliy ko'nikmalarni shakllantirish.

1.3. Kursning vazifalari.

Mediatorlikka nomzodlarning quyidagi yo'nalishlar bo'yicha nazariy bilimlarini oshirish, ko'nikmalarini rivojlantirish:

O'zbekiston Respublikasida mediatsiyaning mohiyati va prinsiplari hamda huquqiy asoslari, mediatorning kasbiy etikasi, xalqaro tajriba, mediatorning kasbiy ko'nikmalari va mediatsiyada muloqot asoslari;

mediatsiya tartibi va bosqichlari, mediatsiya jarayonida tomonlarning vakillari, ekspertlar, mutaxassislar va boshqa shaxslarning ishtiroki, mediatorning mediatsiya jarayoni bilan bog'liq hujjatlarni rasmiylashtirish ko'nikmalari;

nizo tushunchasi, tuzilishi va dinamikasi, mediatsiyada agressiya va e'tirozlar bilan ishlash, mediatsiyani o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish, "Premediatsiya", mediatsiya bosqichlari: mediatorning kirish so'zi, tomonlarning

taqdimotlari, diskussiya (savdolashish, integrativ va distributiv muzokaralar), mediativ kelishuv tayyorlash, mediatsiyadan chiqish, ko-mediatsiyaning o'ziga xos xususiyatlari, ko'p tomonlama nizolarda vositachilik;

iqtisodiy, oilaviy va mehnat munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarni mediatsiya orqali hal etishning o'ziga xos xususiyatlari.

1.4. Kutilayotgan natijalar

Kurs yakunida tinglovchilar mediatsiyaning umumiy asoslari, mediatsiya protseduralari, mediatsiya va ayrim turdagi nizolarda mediatsiyaga oid nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalarni egallaydilar.

II.MAVZULAR REJASI

T/r	Mavzular nomi	Mashg'ulotlarga ajratilgan soatlar				
		Ma'ruza	Seminar-trening	Amaliy mashg'ulot	Yakuniy imtihon	Jami
1	O'zbekiston Respublikasining mediatsiya to'g'risidagi qonunchilik hujjatlarining mazmun-mohiyati	2	-	-	-	2
2	Mediatsiyaning mohiyati va prinsiplari hamda huquqiy asoslari	2	-	-	-	2
3	Mediatsiyada axborot texnologiyalari yutuqlari va sun'iy intellektdan foydalanish qoidalari, onlayn mediatsiya o'tkazish tartibi	2	-	-	-	2
4	Mediatorning kasbiy ko'nikmalari, etikasi va javobgarligi	2	-	-	-	2
5	Mediatsiyada taraflar vakillarining ishtiroki va ularning maqomi	-	2	-	-	2
6	Mediatsiya bosqichlari va unda mediatorning roli va funksiyalari	2	-	2	-	4
7	Mediatsiya jarayoni	-	2	2		4
8	Mediatsiyada kommunikatsiya usullari	-	-	2	-	2
9	Muzokaralar mediatsiyaning asosi sifatida	2	-	-	-	2
10	Mediatsiya metodlari tushunchasi, turlari va ahamiyati	-	2	2		4

11	Mediatsiya jarayonining natijasi va u bilan bog‘liq hujjatlarni rasmiylashtirish ko‘nikmalari		-	-	2	-	2
12	Mediativ kelishuvni ijro etishning huquqiy asoslari		-	2	-	-	2
13	Oilaviy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarni mediatsiya orqali hal etishning o‘ziga xos xususiyatlari		-	-	2	-	2
14	Mehnat munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarni mediatsiya orqali hal etishning o‘ziga xos xususiyatlari		-	-	2	-	2
15	Iqtisodiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarni mediatsiya orqali hal etishning o‘ziga xos xususiyatlari		-	-	2	-	2
	Yakuniy imtihon	Nazariy bilimlarni baholash	-	-	-	2	2
		Amaliy ko‘nikmalarni baholash	-	-	-	2	2
	J A M I:		12	8	16	4	40

III. O'QUV MATERIALINING MAZMUNI

“MEDIATORLARNI TAYYORLASH”	
1-mavzu: O‘zbekiston Respublikasining mediatsiya to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlarining mazmun-mohiyati. Asosiy masalalar: Mediatsiya instituti va uning zaruriyati. “Mediatsiya to‘g‘risida”gi Qonunning umumiy tavsifi. Mediatsiya tushunchasi va asosiy prinsiplari. Mediatorning huquqiy maqomi. Mediatsiya qo‘llaniladigan nizolar. Mediativ kelishuv va uning Yuridik kuchi. Davlat boji masalasi. Mediatsiyaning afzalliklari.	
2-mavzu: Mediatsiyaning mohiyati va prinsiplari hamda huquqiy asoslari. Asosiy masalalar: “Mediatsiya to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining mazmuni va mohiyati. Mediatsiyani qo‘llashning huquqiy oqibatlari va fuqarolik, iqtisodiy-protsessual va hakamlik qonunchiligidagi yarashtiruv jarayonlarini takomillashtirish. Davlat bojlarini undirishda yarashtiruv va mediatorlik kelishuvlarining xususiyatlari. Ijro faoliyatida mediatsiya. Mediatsiyaning nizolarni hal qilish usuli sifatidagi xususiyatlari. Nizo: tushunchasi, tuzilishi va dinamikasi.	
3-mavzu: Mediatsiyada axborot texnologiyalari yutuqlari va sun’iy intellektdan foydalanish qoidalari, onlayn mediatsiya o‘tkazish tartib. Asosiy masalalar: Mediatsiyada axborot texnologiyalarining o‘rni. Onlayn mediatsiya tushunchasi. Mediatsiyada sun’iy intellektdan foydalanish. Onlayn mediatsiya o‘tkazish tartibi.	
4-mavzu: Mediatorning kasbiy ko‘nikmalari, etikasi va javobgarligi.	

Asosiy masalalar: Mediator kasbiy etikasining tushunish. Yevropada mediatorning etika kodeksi. MDH davlatlarida mediatorning milliy etika kodeksi. Mediatorlik faoliyatida kasbiy etikaning roli. Mediatorlik kasbiy etikasi qoidalarini buzishning oqibatlar. Kommunikatsiya: tushunchasi va shakllari. Mediatsiyada kommunikatsiyaning xususiyatlari. Samarali kommunikatsiya texnikasi: faol eshitish, qaytarish (exo-takrorlash), soʻz va iboralarni qayta tuzish, fikrlarni rivojlantirish, xulosa qilish (rezyumirovanie), “refreyming”. “Kommunikatsiyada blokirovkalar”. Savollar mediatorning kommunikativ texnik vositasi sifatida. Savollarning turlari. Tomonlarning qiziqish va manfaatlarini aniqlash uchun “savollar voronkasi”. Mediatsiya jarayonida noverbal kommunikatsiya.

5-mavzu: Mediatsiyada taraflar vakillarining ishtiroki va ularning maqomi.

Asosiy masalalar: Tomonlar vakillarining mediatsiyada ishtiroki va ularning huquqiy maqomi. Mediatsiya jarayonida mutaxassislar, ekspertlar, tarjimon va boshqa shaxslar ishtiroki zarurligini aniqlash hamda ularning maqomi. Oilaviy nizolar mediatsiyasida taraflar yoki ularning vakillari ishtirokining xususiyatlari. Mehnat nizolari mediatsiyasida taraflar yoki ularning vakillari ishtirokining xususiyatlari. Iqtisodiy nizolar mediatsiyasida taraflar yoki ularning vakillari ishtirokining xususiyatlari. Tijorat mediatsiyasida taraflar yoki ularning vakillari ishtirokining xususiyatlari.

6-mavzu: Mediatsiya bosqichlari va unda mediatorning roli va funksiyalari.

Asosiy masalalar: Mediatsiya bosqichlari (mediatorning kirish soʻzi, tomonlarning taqdimotlari, diskussiya – savdolashish, integrativ va distributiv muzokaralar, mediativ kelishuvni tayyorlash hamda mediatsiyadan chiqish va unda mediatorning roli va funksiyalari. Mediatsiyaga tayyorgarlik. Mediatorning mediatsiya ishtirokchilari bilan axborotli uchrashuvi (premediatsiya). Taqdimotlar bosqichida mediatorning kommunikativ texnikalari. Advokat – mediator sifatida. Notarius-mediatorning protsessual vazifalari. Mediatorning huquq va majburiyatlari. Taraflarning huquq va majburiyatlari.

7-mavzu: Mediatsiya jarayoni.

Asosiy masalalar: Nizo tushunchasi. Nizolarning sabablari. Nizoning tuzilishi. Nizo eskolatsiyaning bosqichlari. Nizolarda odamlarning oʻzini tutish usullari. Mediabellikini aniqlash uchun nizoni diagnostika qilish. Nizolarda manfaat va pozitsiyalar. Kun tartibini shakllantirish. Mediatsiyadan chiqish (taraflarning manfaatlar bilan ishlash, yechim ishlab chiqish, yechimlarni baholash va tanlash). Mediatsiyada kelishish va erishilgan kelishuvlarning realligini tekshirish jarayonlari.

8-mavzu: Mediatsiyada kommunikatsiya usullari.

Asosiy masalalar: Ogʻzaki (verbal) kommunikatsiya. Ogʻzaki boʻlmagan (noverbal) kommunikatsiya. Yozma kommunikatsiya. Mediatsiyada asosiy kommunikatsiya usullari. Savol berish texnikasi. Hissiyotni boshqarish. Mediatsiyada samarali kommunikatsiya prinsiplari.

9-mavzu: Muzokaralar mediatsiyaning asosi sifatida.

Asosiy masalalar: Hissiyotni boshqarish. Mediatsiyada samarali kommunikatsiya prinsiplari. Diskussiya bosqichning maqsadlari. Tijorat/oila mediatsiyasi jarayonini imitatsiyasi va tomonlarning aniq manfaatlarini aniqlash jarayonida qo'llaniladigan texnikalarning namoyishi, hissiyotlar bilan ishlash – muzokaralar kun tartibini shakllantirish, tomonlar bilan individual suhbat (kokus), ochiqcha savollar. Tomonlar manfaatlari bo'yicha muzokaralar mediatsiyada muzokaralar bosqichning asosi sifatida. Distributiv savdolashish. Muzokaralarda mavhumlik ("tupik") tushunchasi. Mediatsiya jarayonlarining imitatsiyasi va nizoni hal etish variantlarini qidirish va kelishishga imkon yaratuvchi texnikalarni namoyish qilish: ob'ektiv mezonlar bilan ishlash, nizoni hal qilish bo'yicha takliflarning ko'p variantlilik, muqobil variantlar bilan ishlash, aqliy hujum, "iblis advokati". Mediatsiyada murakkab mijozlar bilan ishlash. Mediatsiyada tomonlar disbalansi bilan ishlash. Mediatsiya jarayonida manipulyatsiyalar.

10-mavzu: Mediatsiya metodlari tushunchasi, turlari va ahamiyati.

Asosiy masalalar: Mediatsiya metodlari tushunchasi. Mediatsiya metodlarining asosiy turlari. Facilitativ (yengillashtiruvchi) metod. Evaluativ (baholovchi) metod. Transformativ metod. Aralash (kombinatsiyalashgan) metod. Mediatsiya metodlarining ahamiyati.

11-mavzu: Mediatsiya jarayonining natijasi va u bilan bog'liq hujjatlarni rasmiylashtirish.

Asosiy masalalar: Mediatsiya jarayonida tuziladigan kelishuvlar va ularning turlari. Mediativ kelishuvning kelishuv bitimidan farqi. Mediativ kelishuvga qo'yiladigan huquqiy talablar. Mediativ kelishuvning tuzilishi. Sud ko'rilayotgan nizolar bo'yicha mediativ kelishuv tuzish va uning huquqiy oqibatlari. Oilaviy, mehnat, iqtisodiy va boshqa munosabatlardan kelib chiqadigan nizolari bo'yicha mediativ kelishuv va kelishuvlarni ijrosini ta'minlash. Tijorat mediatsiyasi natijalarini rasmiylashtirishning o'ziga xos xususiyatlari.

12-mavzu: Mediativ kelishuvni ijro etishning huquqiy asoslari.

Asosiy masalalar: Mediativ kelishuvni sud tomonidan tasdiqlash tartibi. Ijro etish mexanizmi. Ijro jarayonida mediatsiya. Mediativ kelishuvni haqiqiy emas deb topish asoslari.

13-mavzu: Oilaviy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarni mediatsiya orqali hal etishning o'ziga xos xususiyatlari.

Asosiy masalalar: Oilaviy nizolarni hal qilishda mediatsiyaning samaradorligi. Oilaviy nizolarni hal qilishda mediatsiya jarayonlarining xususiyatlari. Mediatsiya jarayonida voyaga etmagan shaxslarning ishtiroki. Vasiylik va homiylik organlari, voyaga etmaganlar bilan ishlash komissiyalari va oila, yoshlar hamda voyaga yetmaganlar bilan ishlash bo'yicha boshqa organlarning ish faoliyatida mediatsiyaning imkoniyatlari.

14-mavzu: Mehnat munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarni mediatsiya orqali hal etishning o'ziga xos xususiyatlari.

Asosiy masalalar: Mehnat nizolarni hal qilishda mediatsiyaning samaradorligi. Mehnat nizolarni hal qilishda mediatsiya jarayonlarining xususiyatlari. Mediatsiya jarayonida voyaga yetmagan shaxslarning ishtiroki. Ish beruvchi va xodimlar

o'rtasida bo'ladigan nizolar bilan bog'liq ishlarni hal qilishda mediatsiyaning ahamiyati. Mehnat nizolari bilan ishlash bo'yicha boshqa organlarning ish faoliyatida mediatsiyaning imkoniyatlari.

15-mavzu: Iqtisodiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarni mediatsiya orqali hal etishning o'ziga xos xususiyatlari.

Asosiy masalalar: Iqtisodiy nizolarni hal qilishda mediatsiyaning samaradorligi. Iqtisodiy nizolarni hal qilishda mediatsiya jarayonlarining xususiyatlari. Mediatsiya jarayonida voyaga yetmagan shaxslarning ishtiroki. Shartnomaviy munosabatlar bilan bog'liq ishlarni hal qilishda mediatsiyaning ahamiyati. Iqtisodiy nizolari bilan ishlash bo'yicha boshqa organlarning ish faoliyatida mediatsiyaning imkoniyatlari.

Manbalar:

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.

O'zbekiston Respublikasining "Notariat to'g'risida"gi Qonuni.

O'zbekiston Respublikasining "Advokatura to'g'risida"gi Qonuni.

O'zbekiston Respublikasining "Hakamlar sudlari to'g'risida"gi Qonuni.

O'zbekiston Respublikasining "Mediatsiya to'g'risida"gi Qonuni.

O'zbekiston Respublikasining "Yuridik yordam va huquqiy xizmatlar ko'rsatish tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonuni.

O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi.

O'zbekiston Respublikasining Iqtisodiy-protsessual kodeksi.

O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik-protsessual kodeksi.

O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi.

O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi.

O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 12-maydagi "Advokatura instituti samaradorligini tubdan oshirish va advokatlarning mustaqilligini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5441-son Farmoni.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-yanvardagi "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi 5618-sonli Farmoni.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 2-apreldagi "Aholi muammolari bilan ishlashda mahalla institutining mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5700-son Farmoni.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-iyundagi "O'zbekiston Respublikasida notariat tizimini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5816-sonli Farmoni.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 17-iyundagi "Nizolarni muqobil hal etishning mexanizmlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4754-son qarori.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-dekabrda 1013-son "Huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta'minlash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 14-sentyabr “Notariatning faol modeli doirasida notariuslar tomonidan “yagona darcha” tamoyili bo‘yicha bitimlarni tasdiqlashda davlat organlari va tashkilotlari bilan hamkorlik qilishning ma‘muriy reglamentlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 733-son qarori.

Азбука медиации / сост. Шамликашвили С., Ташевский С. – М., 2011. – 64 с.

Марипова С.А. Медиация. Базовый курс. Основы применения медиации. – Т., 2019.

Методические рекомендации по созданию и развитию служб школьной медиации в образовательных организациях. ФБГУ “ФИМ”, 2015.

Otaxonov F.X. Mediatsiya: tushunchasi, maqsadi va prinsiplari // “O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi axborotnomasi” jurnali. – 2017. – № 1-son. – B. 22-25.

Паркинсон Л. Семейная медиация. – М., 2016. – 316 с.

Рустамбеков И. Медиация. Пособие для медиаторов. – Т., 2019. – 144 с.

Internet saytlari

O‘zbekiston Respublikasi Hukumat portali: www.gov.uz

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi sayti: www.minjust.uz

O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi: <http://lex.uz>

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi sayti: www.parliament.gov.uz

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati sayti: www.senate.gov.uz

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi sayti: www.ksu.uz

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi sayti: www.supcourt.uz

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi sayti: www.minjust.uz

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi sayti: www.mvd.uz

O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi sayti: genprok.gov.uz

Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi sayti: www.nhrc.uz

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman) sayti: www.ombudsman.uz

Toshkent davlat yuridik universiteti sayti: <http://www.tsul.uz>.

TA'LIM TEXNOLOGIYALARI

O‘qitish texnologiyasi: Interfaol o‘qitish texnologiyasi – tinglovchilarning o‘quv mashg‘ulotlarida o‘zaro hamkorlik qilishlari hamda faol qayta aloqa shakllaridan foydalangan holda tegishli o‘quv mashqlarini bajarish.

Ta'lim texnologiyasi yoki uslublarining turlari:

O‘quv jarayonida dars mashg‘ulotlarini tashkil etishning amaliyotga yo‘naltirilgan zamonaviy shakllari – muammoli vaziyatlarni hal etish (keys-stadi), jamoada ishlash (“aqliy hujum” interfaol uslubini qo‘llagan holda va h.k.), hujjatlar loyihalarini tuzish ko‘nikmalarini rivojlantirish mashqlari va boshqalar

qo'llaniladi.

O'qish jarayonida klinik ta'lim, nizoli jarayonlarning imitatsiyasi hamda sayyor mashg'ulotlar qo'llanilishi mumkin.